



IJTIMOIIY PSIXOLOGIYA

Xo'jamqulova Dilnoza

Qo'ldoshev Og'abek

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti 1- bosqich talabasi

[Tel:919009072](tel:919009072)

Yo'ldoshev Tojiddin Abdukarimovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada ijtimoiy psixologiyaning hayotimizda tutgan o'rni uning paydo bo'lishi predmeti vazifalari va zamonaviy psixalogiya haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Psixalogiya, sotsiologiya, individual, tafakkur, predmet, vazifa, zamonaviy psixalogiya.

Аннотация: В данной статье представлена информация о роли социальной психологии в нашей жизни, ее возникновении, предметных задачах и современной психологии.

Ключевые слова: Психология, социология, личность, мышление, объект, задача, современная психология.

Abstract: This article provides information about the role of social psychology in our life, its emergence, subject tasks, and modern psychology.

Key words: Psychology, sociology, individual, thinking, object, task, modern psychology.

Ijtimoiy psixalogiya fanining rivojlanish tarixiga e'tibor qaratadigan bo'lsak kecha yoki bugun paydo bo'lgan fan emas necha ming yillik tarixga ega bo'lgan fan sohalaridan biridir. Ijtimoiy psixologiyaning mustaqil fan bo'lib ajralishiga



sabab bo'lgan ijtimoiy va ilmiy asoslar mavjud, albatta. Insoniyat tarixini o'rganar ekanmiz mutafakkirlar, olimlar, allomalar ijtimoiy psixologik hodisalar bilan juda qiziqqanliklarining guvohi bo'lamiz. Lekin ular bu xodisalarni o'z davri ruxida, o'z nazariy va ijtimoiy qarashlari, hattoki, turli oqimlar orasida tushunishga uringanlar. Ma'lumki dastlab barcha fanlar falsafa fanidan ajralib chiqqan. Shuning uchun ham amerikalik olim G.Olport ijtimoiy psixologik g'oyalarning yaratilishi va rivojlanishi falsafa bilan, uning ko'zga ko'ringan arboblardan hisoblangan Platon nomi bilan bog'liq deb yozgan edi. Hozirgi zamonda ham psixalogiya va ijtimoiy psixalogiya sohalari eng ommabop va o'rganishlar olib borilayotgan sohalar sirasiga kirib kelmoqda. Ayni shu davrda psixologiya fani ham ancha oyoqqa turgan mustaqil fanga aylandi. Lekin u atomistik, ya'ni alohida individ psixologiyasigina o'rganadigan fan bo'lib, u odamlarni o'zaro muloqoti jarayonida ularda ro'y beradigan sirli o'zgarishlarga e'tiborini endi-endi qaratayotgan edi. Ayniqsa, patopsixologiya, pedagogik psixologiya sohalariga individ bilan boshqa individlar munosabati masalasini chetlab utish mumkin bo'lmay qoldi. Ijtimoiy psixalogiya aslida nima ekanligiga keladigan bo'lsak.

Ijtimoiy psixologiya - kishilarning ijtimoiy guruhlariga birlashishini, guruhiy tavsifni, shaxsning ruhiy faoliyati va xulq-atvorini, ijtimoiy psixologik qonuniyatlar, holatlar, hodisalar, ijtimoiy o'rnatilishini kabilarni tadqiq qiluvchi psixologiya sohasi. Avvallari ijtimoiy psixologiyada voqeyilik falsafiy nuqtai nazardan o'rganilib kelingan, lekin shaxs, guruh, jamoa munosabatlari qamrab olinmagan. Endilikda esa bu sohaning ham ko'lami kengaygan holda jamoaviy jarayonlarni o'rganmoqda. Jahon jamoatchiligi tomonidan ijtimoiy psixologiya 1908-yildan fan sifatida tan olingan. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda AQSH va boshqa mamlakatlarda psixologiya muammolari yuzasidan tadqiqotlar o'tkazila boshlandi. Ayniqsa, AQShda Kotorning o'tkazgan tajribasi, E.Meyoning izlanishlari ijtimoiy psixologiya tarixida muhim rol o'ynadi. Bu tadqiqotlarga kichik guruhlar asosiy obyekt qilib olingan tajribalar o'tkazilgan. Ijtimoiy



psixologiya fan sifatida muloqot, muomala qonuniyatlari, shaxslararo munosabat, individual va guruhiiy o‘zaro ta’sir, guruhlarning ichki va tashqi tuzilishi, ularning turlari, tasnifi, ommaviy holatlar va harakatlar, ijtimoiy va milliy ong, mentalitet, milliy qiyofa, harakter, ta’b, an’ana, odat, marosim va boshqalarni tekshiradi. Ijtimoiy psixologiya bir necha sohalarni o‘z ichiga qamrab oladi. O‘zbekistonda ijtimoiy psixologiya yo‘nalishidagi tadqiqotlar asosan mustaqillik davrida yo‘lga qo‘yila boshlandi. Bu ishlar zaminida ijtimoiy psixologiya sohalaridan biri — "Oila psixologiyasi" ilmiy maktabi vujudga keldi. Ijtimoiy psixologiya fanining predmeti va vazifalari haqida aytadigan bo‘lsak Ijtimoiy psixologiya juda qadimiy va shuning bilan birga u o‘ta navqiron fandir. Uning qadimiyligi insoniyat tarixi, madaniyati va ma’naviyatining qadimiy ildizlari bilan belgilanadi. Ular aslini olib qaraganda, u yoki bu jamiyatda yashagan kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning va tafakkurning xosilasi ekanligi bilan e’tirof etilsa, ijtimoiy psixologiya o‘z uslubiylati, predmeti va fanlar tizimida tutgan o‘rnining yangiligi insoniyat taraqqiyotining eng yangi davrida shakllanganligi va rivojiga turtki berganligi bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy psixologiya fanning asosiy predmeti ijtimoiy taraqqiyot hamda psixik taraqqiyot qonuniyatlarini uyg‘unlikda o‘rganishdir. Olimlarning fikricha yani rus olimasi G.M.Andreyeva ta’kidlaganidek, ijtimoiy psixologiya sohasida ishlayotgan mutaxassisning aslida kim ekanligi – psixologmi, faylasufmi yoki sotsiologmi, – uning ushbu fan predmetiga yondashuvida o‘z aksini topadi, chunki agar u sotsiolog bo‘lsa, ijtimoiy qonuniyatlarni avval boshdan jamiyatdagi an’analari va umumiy qoidalar tilida tushuntirishga intilsa, psixolog konkret olingan shaxs psixologiyasining qonuniyatlarini umumjamiyat qonun-qoidalariga tatbiq etishga harakat qiladi. Nima bo‘lganda ham, shuni asosli tarzda e’tirof etish zarurki, ijtimoiy psixologiyaning alohida fan bo‘lib ajralib chiqishiga sabab bo‘lgan ilmiy manbalar ikki an – psixologiya va sotsiologiya fanlarining erishgan yutuqlari va har qaysisining doirasida ma’lum muammolarning yechilishi uchun yana qo‘shimcha alohida fanning bo‘lishi lozimligini tan olish tufayli



yuzaga keldi. Andeyeva tadbiri bilan aytganda psixologiya va sotsiologiya ijtimoiy psixologiyaningvota va onalari hisoblanadi. Jamiyatda sogʻlom insoniy munosabatlarni shakllantirish orqali uni kamol toptirish yoʻlidir. Shuning uchun bugungi kunda yurtboshimiz taʼkidlaganidek, ijtimoiy psixologiya va umuman ijtimoiy faoliyat bilan shugʻullanuvchi fanlarning asosiy vazifasi – barkamol avlod tarbiyasini taʼminlovchi barcha maʼnaviy, ruhiy va insoniy munosabatlar mohiyatini tahlil qilish, ularni boshqarishning eng samarali usullarini hayotga tatbiq etishdir. Bu oʻrinda, ayniqsa, ijtimoiy tafakkurning, yangicha dunyoqarash va munosabatlarning shakllanishini, insonning oʻziga va oʻzgalarga taʼsir etishning mexanizmlarini oʻrganish eng dolzarb masalalardandir. Chunki mamlakatimizning birinchi Prezidenti Islom Karimov mustaqillikka erishish boʻsagʻasidayoq, “respublikada vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy va sotsial-psixologik vaziyat bizni juda tashvishlantirmoqda” , deb, bu vaziyatni barqarorlashtirish uchun ijtimoiy psixologik omillarni oʻrganish, tahlil qilish va amaliy choralar koʻrishga jamoatchilikning diqqatini tortgan edilar. Lekin ming afsuski, upaytda ijtimoiy psixologiya fan sifatida hali yurtimizda rivojlanmagan, bu sohada fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlar oʻtkazuvchi markazlar mavjud emas edi. Faqat mustaqillikka erishganimizdan keyingina mamlakatimizda ilm-fan taraqqiyoti uchun yaratilgan shart-sharoitlar bois bu fan ham shakllanish pallasiga oʻtdi. Ijtimoiy psixologiya alohida fan sifatida nafaqat boʻlgʻusi psixologlar hamda pedagoglarga, balki xalq hoʻjaligining turli tarmoqlari uchun malakali, oliy maʼlumotli kadrlar tayyorlovchi oliy oʻquv yurtlarida ham oʻqitilmoqda. Xoʻsh, bugungi kunda ijtimoiy psixologiya fan sifatida oʻz bahs mavzusini va predmetini qaysi obʻektlarga qaratmoqda?

Birinchidan, uning asosiy yoʻnalishi kichik guruhlar va jamoalar psixologiyasini oʻrganishdan iboratdir. Har bir shaxs hamisha maʼlum ijtimoiy guruhlar doirasida faoliyat koʻrsatadi. Bu uning oilasi, mehnat jamoasi, koʻcha-kuydagi norasmiy guruhdagi doʻstlari davrasi, oʻquv jamoasi, sinf, auditoriya,



boshqaruv muassasalari va hokazo. Shaxsning yakka va turli guruhlar doirasida o'zini tutishi, xulq-atvori, mavqei, unga o'ziga hos guruhiy ta'sirlar, guruhdagi shaxslararo moslik, liderlik, guruhiy tazyiqqa beriluvchanlik kabi qator hodisalar aslida o'sha guruhlarini boshqarish, sog'lom o'zaro munosabatlar sharoitini yaratish – bu odamlarni samarali o'zaro muloqotga o'rgatishning zaruriyatidir.

Boshqaruv psixologiyasi ijtimoiy psixologiyadan ajralib chiqqan tatbiqiy soha bo'lib, u hozirgi kunda xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida insonlar faoliyatini boshqarish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni, guruhiy hamda guruhlararo muloqotni samarali tashkil etish va birgalikdagi faoliyatni takomillashtirish mexanizmlarini o'rganadi.

Ikkinchidan, shaxsning ijtimoiy-psixologik qiyofasi masalasi ham bugungi kundagi o'zgarishlar va ma'naviy jihatdan poklanish davrida o'ta muhim sohadir. Zero, har bir shaxsning jmiyatda ro'y berayotgan tub islohotlarga munosabati, ularni idrok qilish va anglash darajasi, o'z-o'ziga nisbatan munosabatining tabiati, xulqidagi ijtimoiy motivlar va yo'nalishlar katta ahamiyatga egadir. Ayniqsa, bolaning voyaga yetishi jarayonida uning ijtimoiylashuvi, ya'ni ijtimoiy munosabatlar muhitiga kirib borishi, ijtimoiy ta'sirlarni ongiga singdirishi va u yoki bu turdagi xulq andozalarini mustahkamlash, mafkuraviy dunyoqarashining shakllanishi jarayonlarining psixologik tabiatini tekshirish barkamol shaxsni voyaga yetkazish dasturini yaratish uchun zarur. Lekin har bir shaxsda bu jarayon o'ziga xos tarzda ro'y berishi sababli, ijtimoiy psixologiyada uning ijtimoiy tiplari farqlanadi va har bir murabbiy yoki tarbiyachi ularni bilishi amaliy ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, jamiyat miqyosida ro'yo beradigan ommaviy hodisalar ham ijtimoiy psixologiya uchun tatbiqiy ahamiyatga ega. Chunki alohida shaxs tarbiyasida ommaviy hodisalarning, katta guruhlarining ta'sirini inkor etish – masalaga bir yoqlama yondashishga barobardir. Masalan, shaxs uchun u mansub bo'lgan millat, elat yoki xalqning ruhiyati, uning ongidagi asrlar davomida saqlanib



kelayotgan an'analar, rasm-rusumlar, aqidalar, udumlar, faoliyat stereotiplari kabilar o'z muayyan ta'sir kuchiga ega. Millatning ruhi ilk bolalikdayoq shaxs ongiga u o'zlashtirgan milliy til orqali, oila muhitida shakllanadi.

Ijtimoiy psixologiyaning asosiy metodlari to'g'risida aytadigan bo'lsak ular umquyidagilarni tashkil etadi.

Kuzatish metodi.

So'rov metodi.

Test metodi.

Psixologik tajriba metodi.

Modellashtirish metodi.

Psixologiyaning asosiy metodlari Aniq izlanish predmetiga ega bo'lgan har qanday fan o'sha predmetining mohiyatini yoritish va materiallar to'plash uchun maxsus usullar va vositalardan foydalanadi va ular fanning metodlari deb yuritiladi. Fanning salohiyati va obro'si ham birinchi navbatda o'sha metodlar yordamida to'plangan ma'lumotlarning ishonchliligi va validliligiga bog'liq bo'ladi. Bu fikrlar bevosita psixologiyaga ham aloqador bo'lib, metodlar masalasi bu fanda juda katta ahamiyatga molik masala sifatida qaraladi. Chunki yuqorida ta'kidlaganimizdek, psixik hodisalarni bevosita qo'l bilan ushlab, ko'z bilan ilg'ab, quloq bilan sezish qiyin. Lekin juda ko'plab fanlar bilan faol hamkorlik shunga olib kelganki, psixologiyaning har bir tarmog'i o'z vazifalarini yechish va ma'lumotlarga ega bo'lish uchun ko'plab metodlarni sinovlardan o'tkazib, eng ishonchli va mukammallarini saqlab qolgan. Matematik statistika va ehtimollar nazariyasining psixologiya sohasida qo'llanilishi va unda erishilgan muvaffaqiyatlar avvalo har bir metodning ishonchlilik darajasini aniqlash, qolaversa, to'plangan ma'lumotlarning qay darajada asosli va valid ekanligini isbotlashga yordam beradi. Jadvalda keltirilgan metodlar yordamida tadqiqotchi yoki qiziqkan shaxs u yoki bu psixik jarayon, holat yoki shaxs xususiyatlari to'g'risida birlamchi ma'lumotlar to'playdi, to'plangan ma'lumot yana tahlil



qilinadi va maxsus tarzda ishlatilishi mumkin. Psixologiya fanida inson psixikasini tadqiqot qilish metodlarining turlicha tasnifi mavjud. B.G.Ananyev psixikani o'rganish metodlarini to'rtta guruhga ajratib bergan. Bu to'rtta guruh metodlar M.Ulug'bek nomli O'zbekiston Milliy Universiteti, Nizomiy nomli Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti, Farg'ona Davlat Universiteti kabi psixolog mutaxassis tayyorlaydigan oliygohlarda mufassal o'rganiladi.

Xulosa. Hozirgi kunda ijtimoiy psixologiya sohasiga nisbatan talab darajasi borgan sari o'sib bormoqda fanining asosiy obyekti kichik guruhlar ijtimoiy jamoalar hisoblanar ekan ham ancha tarixga ega bo'lgan ham navqiron fan sohalari turkumiga kiradi. Bugungi kunda rivojlanayotgan fanning metodlari uning saviya darajasini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.V.Makdugall o'zining "Ijtimoiy psixologiyaga kirish"
- 2.G'oziyev E.G'. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent, 2010.
- 3.G'oziyev E.G'. Sotsial psixologiya. – Toshkent, 2012. – 316 b.
- 4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi
- 5.“O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida” gi PF-4947-sonli Farmo.
- 6.Халилова Ш.Т., Пўлатов Ж.А. Ижтимоий психология. – Тошкент,